

**BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA PUL-KREDIT SIYOSATI
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Xolmirzayev Alisher Faxriddin o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Bank - Moliya akademiyasi tinglovchisi e-mail:
alikhholmirzaev93@gmail.com tel: (+998) 974247097*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda pul-kredit siyosati mexanizmlarining amaldagi holati tahlil qilinadi va ularni takomillashtirish yo'llari ishlab chiqiladi. Tadqiqot jarayonida Xalq banki faoliyati misolida kreditlash, depozitlar va bank aktivlari kabi moliyaviy ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, inflyatsiyani nazorat qilish va makrobarqarorlikni ta'minlashda pul-kredit siyosati samarali ishlamoqda, biroq kredit resurslarining real sektor va investitsion loyihalarga yetarlicha yo'naltirilmasligi iqtisodiy o'sishni cheklamoqda. Maqolada bank tizimi va pul-kredit siyosati mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ham keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *pul-kredit siyosati, barqaror iqtisodiy o'sish, foiz stavkalari, depozit, inflyatsiya, kreditlash, Xalq banki.*

KIRISH

Barqaror iqtisodiy o'sish mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, ijtimoiy farovonlik va moliyaviy mustahkamlikni ta'minlaydigan asosiy omil hisoblanadi. Shu bois, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va inflyatsiyani nazorat qilish bo'yicha samarali mexanizmlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Pul-kredit siyosati esa iqtisodiy o'sish, inflyatsiya darajasi, yalpi ichki mahsulot va investitsion faollik kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga bevosita ta'sir qiluvchi eng muhim vositalardan hisoblanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda pul-kredit siyosatini takomillashtirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ular orasida foiz stavkalarini tartibga solish, pul massasini muvofiqlashtirish va bank kreditlash faoliyatini kengaytirish bor. Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu mexanizmlarning ayrimlari iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda yetarlicha samarali ishlamayapti.

Xususan, foiz stavkalari transmissiyasining sekinligi, kredit resurslarining real sektor va investitsion loyihalarga yetarlicha yo'naltirilmasligi, shuningdek, pul-kredit siyosati instrumentlarining kompleks tizim sifatida ishlatilmasligi iqtisodiy o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli mazkur maqola asosiy e'tiborini pul-kredit siyosati mexanizmlarining amaldagi holatini tahlil qilish va ularni takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqishga qaratadi.

Tadqiqot jarayonida Xalq banki misolida kreditlash, depozitlar va bank aktivlari kabi moliyaviy ko'rsatkichlar o'rganilib, iqtisodiyotga uzatilayotgan pul-kredit siyosati impulsarining samaradorligi baholandi. Ushbu yondashuv maqolaga nafaqat nazariy,

balki amaliy asos ham beradi va barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun aniq tavsiyalar ishlab chiqishga imkon yaratadi.

O'zbekiston sharoitida barqaror iqtisodiy o'sish va pul-kredit siyosati o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish dolzarb hisoblanadi, chunki iqtisodiyotning barqarorligi milliy ishlab chiqarish hajmi, inflyatsiya darajasi, kreditlash imkoniyatlari va xalqaro investitsiyalar oqimi bilan bevosita bog'liq. Shu bois, pul-kredit siyosati mexanizmlarini takomillashtirish, ularning samaradorligini oshirish va mavjud strategiyalarni qayta ko'rib chiqish O'zbekistonning iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqarorlashtirish uchun muhim vazifa hisoblanadi. (Raval and Goyal, 2009)

Adabiyotlar sharhi

Adabiyotlarda keltirilishicha pul-kredit siyosati iqtisodiy barqarorlikni saqlash, inflyatsiyani jilovlash va real sektor uchun kredit imkoniyatlarini yaxshilash orqali o'sishni qo'llab-quvvatlaydi deb ta'kidlanadi. Pul-kredit siyosatining iqtisodiy o'sishga ta'siri mamlakatning moliyaviy infrastrukturasiga, markaziy bank mustaqilligiga va bozorning reaksiyasiga bog'liq ekani qayd etiladi, shuning uchun siyosat samaradorligi yagona model bilan baholanmaydi. (Piotr and William, 2024)

Ayrim tadqiqotlar pul-kredit siyosatining o'sishga ta'siri aralash natija berishini ko'rsatadi, ya'ni ba'zi davlatlarda bu siyosat sezilarli ta'sir ko'rsatadi, boshqalarida esa cheklangan ta'sir ko'rsatadi. Bu samaradorlik davlatning moliyaviy institutlar mustaqilligi, bank tizimi chuqurligi va siyosat kechikishlariga bog'liqligini ko'rsatadi. (Uskenbaeva, 2025)

Milton Friedman monetarizmdagi asosiy g'oyasi sifatida pul massasining barqaror o'sishi inflyatsiya va iqtisodiy barqarorlikka bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaydi va markaziy bank pul taklifini doimiy darajada nazorat qilib borishni tavsiya qiladi. (Friedman, 2023)

Robert Lucas ratsional umidlar nazariyasi orqali pul-kredit siyosati agentlar tomonidan kutilganda makroiqtisodiy o'zgarishlarga ta'sirining pasayishini ta'kidlaydi va bu siyosat samaradorligini baholashda yangi yondashuvni taklif etadi. (Lukas, 1976)

Adilov o'zining nazariy va empirik tadqiqotlarida pul-kredit siyosatining makroiqtisodiy natijalarga — foiz stavkalari, pul taklifi va narx barqarorligiga — bevosita ta'siri ekanligini qayd etadi va shu orqali iqtisodiy o'sishni shakllantirishda muhim rolini ko'rsatib beradi.. (Adilov, 2025)

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda pul-kredit siyosati mexanizmlarining banklar faoliyatiga ta'siri "Xalq Banki" misolida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, bank faoliyatida asosiy muammolardan biri — kredit resurslarining real sektor loyihalariga yetarli darajada yo'naltirilmasligi hamda yuqori foiz stavkalari sababli investitsion faollikning pasayib borayotgani hisoblanadi. Ushbu muammoni tahlil etishda analiz va sintez, SWOT tahlili, statistik va boshqa usullardan foydalanish asosida tushuntirildi. Xalq Banki faoliyatida pul-kredit siyosati

mexanizmlarini takomillashtirish orqali kredit resurslarining real sektorga yo'naltirilishini kuchaytirish, foiz stavkalarini optimallashtirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

O'zbekistonda so'nggi yillarda pul-kredit siyosati asosan makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, inflyatsiyani pasaytirish yo'nalishida ijobiy natijalarga erishilgan. Xususan, 2019–2025 yillar davomida inflyatsiya darajasi 13,5 foizdan 7,3 foizgacha pasaydi. Bu holat pul massasini tartibga solish va qat'iy monetar sharoitlar narxlar barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi.(Abdurahmonov, 2022)

Biroq inflyatsiyaning pasayishiga qaramasdan, iqtisodiy o'sish sur'atlari mazkur davrda barqaror yuqori darajada saqlanib qolmagan. YAIM o'sish sur'ati 2021 yilda 7,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilda ushbu ko'rsatkich 7,7 foiz atrofida shakllandi. Bu holat pul-kredit siyosatining inflyatsiyani jilovlashdagi samaradorligi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish bilan to'liq uyg'unlashmaganini ko'rsatadi.(G'ulomiddinovich, 2024)

1-jadval

O'zbekistondagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar (2019–2025)

Yil	Inflyatsiya (%)	YAIM o'sish (%)	Eksport (mlrd \$)	Import (mlrd \$)	Tashqi savdo aylanmasi (mlrd \$)
2019	13,5	5,5	17,9	24,3	42,2
2020	12,9	4,3	15,1	21,1	36,2
2021	10,8	7,4	16,6	25,4	42,0
2022	12,3	7,0	19,3	30,4	49,7
2023	8,8	6,5	23,0	34,8	57,8
2024	9,8	6,5	26,9	39,0	65,9
2025	7,3	7,7	33,8	58,0	81,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi: www.stat.uz

Tahlillar shuni aniqladiki, foiz stavkalari yuqori darajada saqlanib qolgan sharoitda kredit resurslarining real sektorga o'tishi sekinlashgan. Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar hajmi oshgan bo'lsa-da, ularning katta qismi ijtimoiy va iste'mol yo'nalishlariga to'g'ri kelmoqda. Bu holat investitsiya va ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishga xizmat qiladigan uzoq muddatli kreditlar ulushining yetarli emasligini ko'rsatadi.

2-jadval

Xalq bankining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari (2019–2025)

Yil	Kredit portfeli (trln so'm)	Depozitlar (trln so'm)	Jami aktivlar (trln so'm)	Sof foyda (mlrd so'm)
2019	13,2	6,8	18,5	210
2020	16,5	8,1	22,4	265
2021	21,8	11,3	29,7	340
2022	27,9	14,9	38,2	415
2023	33,6	18,7	46,5	520

2024	34,4	19,1	30,7	657
2025	35,1	20,9	31,9	610

Manba: Markaziy bank yillik hisobotlari: www.cbu.uz

Xalq banki misolida olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra, 2019–2025 yillarda bank kredit portfeli 13,2 trillion so'mdan 35,1 trillion so'mga oshgan. Kreditlash hajmining o'sishi bank tizimi orqali pul-kredit siyosatining iqtisodiyotga uzatilayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, kredit portfelining sezilarli qismi ipoteka, ta'lim va ijtimoiy yo'naltirilgan kreditlardan iborat bo'lib, real sektorni modernizatsiya qilishga qaratilgan kreditlar ulushi nisbatan pastligicha qolmoqda. (Ishmamatova, 2025)

Depozitlar hajmining barqaror o'sishi aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchi oshib borayotganini ko'rsatadi. Bu holat pul-kredit siyosati barqarorligi va inflyatsion kutilmalarning pasayishi bilan bevosita bog'liqdir. Biroq depozit resurslarining uzoq muddatli investitsion kreditlarga to'liq yo'naltirilmasligi iqtisodiy o'sish imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayotganini ko'rsatadi.

Pul massasi va kredit hajmi o'rtasidagi nisbatni tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, pul massasining o'sishi iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlagan bo'lsa-da, ushbu resurslarning real ishlab chiqarishga yo'naltirilish darajasi cheklangan. Natijada, pul-kredit siyosati orqali yaratilgan moliyaviy resurslar iqtisodiy o'sishga to'liq multiplikativ ta'sir ko'rsata olmagan.

O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli tarkibiy islohotlar real sektorni rivojlantirish, investitsion faollikni oshirish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishni talab etadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda tijorat banklari orqali kredit resurslarining real sektorga yo'naltirilishi muhim ahamiyatga ega. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim tijorat banklarida kredit resurslarining sezilarli qismi qisqa muddatli va iste'mol yo'nalishidagi kreditlarga yo'naltirilmoqda, real sektorni moliyalashtirishga qaratilgan uzoq muddatli investitsion kreditlar ulushi esa yetarli darajada emas. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda pul-kredit siyosatini amalga oshirish bo'yicha tijorat banklarining ta'siri katta. Bu holatni o'rganish uchun Xalq banki misolida SWOT tahlili o'tkazilib, xulosa shakllantirildi.

Xalq banki misolida o'tkazilgan SWOT tahlili

Kuchli tomonlari (Strengths).

—Xalq banki davlat banki sifatida pul-kredit siyosatini amalga oshirishda ishonchli vosita;

—Bankning butun O'zbekistonga tarqalgan tarmoqlari kreditlarni tez va keng qamrovda yetkazishga imkon beradi;

—Ipoteka, ta'lim va ijtimoiy kreditlar orqali aholiga yordam beradi, bu esa iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shadi;

—Depozitlar barqaror oshib bormoqda, ya'ni odamlar bankka ishonadi.

Zaif tomonlari (Weaknesses).

- Foiz stavkalari o'zgarishining iqtisodiyotga ta'siri sekin;
- Kreditlarning katta qismi davlat dasturlari va ijtimoiy yo'nalishlarga bog'liq;
- Ijtimoiy kreditlar ko'p bo'lgani sababli, investitsion loyihalarga ajratiladigan mablag'lar kam.

Imkoniyatlari (Opportunities).

- Foiz stavkalari va kredit siyosatini bozor talablariga moslashtirish imkoniyati bor;
- Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish orqali kreditlar tezroq yetkazilishi mumkin;
- Kichik biznes va tadbirkorlikni moliyalashtirish orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish mumkin;
- Energiya tejamkor va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyati mavjud.

Xatarlar (Threats).

- Inflyatsiya oshishi bank resurslarining real qiymatini pasaytirishi mumkin;
- Foiz stavkalari keskin o'zgarishi kreditlash hajmini kamaytirishi mumkin;
- Global iqtisodiy beqarorlik va tashqi bozordagi o'zgarishlar bankning faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin;
- Xususiy va xorijiy banklar bilan raqobat kuchayishi bankning bozor ulushiga bosim o'tkazadi.

“Xalq banki” misolida o'tkazilgan SWOT tahlili shuni ko'rsatadiki, bankning kuchli institutsional pozitsiyasi va keng moliyaviy imkoniyatlari pul-kredit siyosatining iqtisodiy o'sishga ta'sirini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, foiz stavkalari transmissiyasini takomillashtirish va bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish bank faoliyatining barqarorligini yanada mustahkamlash imkonini beradi.

Xulosa

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Xalq banki pul-kredit siyosatini iqtisodiyotga uzatishda muhim rol o'ynaydi. Bankning kuchli tomonlari — davlat banki bo'lishi, butun mamlakat bo'ylab tarqalgan tarmog'i va aholiga yo'naltirilgan kreditlar — iqtisodiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, foiz stavkalari va kreditlar real sektor bilan to'liq uyg'unlashmaganligi, kreditlarning katta qismi ijtimoiy yo'nalishlarga yo'naltirilganligi iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda.

Biroq bankning imkoniyatlari katta: foiz stavkalarini moslashtirish, raqamli xizmatlarni rivojlantirish, kichik biznes va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish mumkin. Shu bilan birga, inflyatsiya, foiz stavkalari o'zgarishi, global bozor shoklari va raqobat kabi xatarlar mavjud.

Umuman olganda, Xalq bankining faoliyati pul-kredit siyosati vositalarini iqtisodiyotga samarali uzatishga xizmat qilmoqda, ammo kredit resurslarini real sektor va investitsion loyihalarga kengroq yo'naltirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish darajasini oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Abdurahmonov, A. (2022) "O'zbekiston pul-kredit siyosati va uning iqtisodiyotga ta'siri".

Adilov, Z. (2025) 'O'zbekiston respublikasida pul-kredit siyosatining maqsadi'. Available at: <https://doi.org/10.5281/Zenodo.15509779>.

Friedman, M. (ed.) (2023) Friedman's k-percent rule. London New York: Routledge, Taylor & Francis Group (Routledge studies in the history of economics).

G'ulomiddinovich, M. (2024) 'Pul va kredit siyosatining ijtimoiy hamda iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni'.

Ishmamatova, S. (2025) 'O'zbekiston Markaziy bankining inflatsiyaga qarshi strategiyasi'.

Lukas, R. (1976) 'Ekonometrik siyosatni baholash'.

Piotr, L. and William, J. (2024) Raqamli transformatsiya va bank faoliyati iqtisodiyoti.

Raval, P. and Goyal, A. (2009) Pul kredit siyosati va markaziy bank faoliyati.

Uskenbaeva, D. (2025) 'Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish yo'nalishlari'. Available at: <https://doi.org/10.5281/Zenodo.15715873>.

www.stat.uz

www.cbu.uz